

## **UMUMTA'LIM MAKTABLARI MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASI**

*Mingboeva Yulduz Boboxolovna  
JDPU 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi ko'rib chiqilgan. Moliyaviy savodxonlikni oshirish yo'llari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy savodxonlik, moliyaviy bilim, matematika, yondoshuv, iqtisodiyot.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yilning 23 iyulida qabul qilingan "Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi"gi PQ-4400 sonli Qarorida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan aholi moliyaviy savodxonligini oshirish sohasidagi ilg'or xalqaro tajribani hisobga olgan holda aholi moliyaviy xizmatlar ommabopligini kengaytirishni va tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishni, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni nazarda tutuvchi "Moliyaviy ommaboplikni oshirishning milliy strategiyasi"ni ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan[1]. Shuningdek 2020 yilning 27 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev raisligida bo'lib o'tgan "Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar" bo'yicha videoselektor yig'ilishida "Kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish degani emas. Buning uchun eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarni o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak" deb ta'kidladilar. Bugungi kunda aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish global ahamiyat kasb etuvchi masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholashning turli metodologik yondashuvlar bo'yicha qator xalqaro moliyaviy tashkilotlar iqtisodchi

ekspertlari tomonidan turli yo‘nalishlardagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar aholining moliyaviy savodxonligi darajasini baholash orqali uy xo‘jaliklari, oila va individning (shaxsning o‘zi) o‘z ixtiyoridagi moliyaviy resurslarini boshqara olishi va ularni to‘g‘ri yo‘naltirishdagi samarali qarorlarini baholashga qaratiladi. Shu bilan bir qatorda, aholining moliyaviy savodxonligi darajasining aholi turmush darajasiga ta‘siri ham baholanadi. Bunda monetar ko‘rsatkichlar orqali uy xo‘jaliklari, oila yoki shaxsning monetar xarakteristikasi shakllantiriladi.

Matematik ko‘nikmalar asosiy moliyaviy masalalarni yechish uchun zarur: amaliy yo‘naltirilgan masalalarni yechish maktab matematikasi kursining nazariyasini va maktab o‘quvchilari real duch keladigan hayotiy vaziyatli masalalarni taqqoslashga imkon beradi, tijorat hisob-kitoblari o‘quvchiga matematikaning amaliy yo‘nalganligini ko‘rishga yordam beradi. Matematik formulalar va qonunlarni bilish ba‘zan amaliy masalalarni yechishda ularni qo‘llash asoslari bilan mustaxkamlanmaydi va matematik bilimlar aksariyat hollarda hayotda formal va talab etilmaydigan bo‘lib hisoblanadi. Matematika darslarida iqtisodiy bilimlarni shakllantirish extiyoji paydo bo‘ladi.

Matematika darslarida o‘quvchilar iqtisodiy mazmundagi masalalarni yechadilar, grafiklarni yasash va tadqiq etishni, foizlarni hisoblashni o‘rganadilar.

5-6 sinf maktab matematika darsliklari tahlili shuni ko‘rsatadiki: olingan kreditni o‘z vaqtida qaytarish uchun uni qanday olish kerak kabi masalalarni yorituvchi jamiyatning zamonaviy xayotiga bog‘liq moliyaviy savodxonlikni shakllantirishga doir topshiriqlar yo‘q [4]. Ammo kreditga tovar va mashina sotib olish foydalimi? Qanday qilib budjetni xatosiz rejalashtirish kerak? Inflyatsiya sharoitida jamg‘armalarni tejash mumkinmi? – kabi savollarni hayotning o‘zi bank mijozlari oldiga qo‘ymoqda.

O‘qituvchilarning asosiy vazifasi – bilimlarni berish, ijobiy xulq atvorni shakllantirish va o‘quvchilarni mustaqil xayotga tayyorlashga yordam berish, qaysidir ma‘noda ularni moliyaviy xatolarga qo‘yishdan asrashdan iborat. Bolalarda pul xaqidagi birlamchi tasavvurlar maktabgacha davrda shakllanadi, 10

– 12 yoshga kelib bolalarda ongli iqtisodiy tasavvurlar shakllanib boshlaydi [3]. Aynan shu bois 5 sinfdan boshlab o‘quvchilarda moliyaviy kompetentliklarni shakllantirishni boshlash zarur deb hisoblaymiz.

Moliyaviy savodxonlikni shakllantirishga metodik yondoshuv bo‘lib quyidagi yondoshuvlar hisoblanadi: moliyaviy savodxonlik mohiyatini, uning tuzilishi va mazmunini, shuningdek umumiy o‘rta ta’lim maktabi bitiruvchisining kompetensiyalari tizimidagi o‘rnini aniqlash uchun asos sifatida xizmat qiladigan kompetentli yondoshuv; o‘qitish markazida bevosita o‘quvchi – uning motivlari, maqsadlari va noyob psixologik xolati turishini nazarda tutuvchi shaxsga yo‘naltirilgan – faoliyatli yondoshuv; o‘quv jarayonini real hayot bilan yaqinlashtirishni ta’minlovchi kontekstli yondoshuv; o‘quv jarayoni mazmunini emotsional-obrazli va mantiqiy tarkibiy qismlarining birligi va yaxlitligi asosida qurishdan, yangi moliyaviy bilimlarni o‘zlashtirish va ularni hayotiy masala va muammolarni yechishda qo‘llash bo‘yicha amaliy tajribani, o‘quvchilarning ijodiy izlanishlarini shakllantirishdan iborat amaliy yo‘naltirilgan yondoshuv; ta’lim muassasalari, ishbilarmonlar hamjamiyati vakillari, moliya bozorining professional ishtirokchilari, jamoat va notijorat tashkilotlari, ota-onalar hamjamiyati, ommaviy axborot vositalarining o‘zaro aloqasini nazarda tutgan integrativ yondoshuv.

Iqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashlarning asosiy matematik usullari xaqidagi bilimlarni o‘quvchilar o‘rta maktabda egallashlari zarur. Masalan “Foizlar” mavzusi shaxsiy jamg‘armalarni va investitsiyalarni rejalashtirishni, shu bilan birga o‘quvchilarni sodda va murakkab foiz formulalari, bankning foiz stavkasi bilan tanishtirish, inflyatsiyani hisobga olgan holda pulning vaqti qiymatini hisoblashni va boshqarishni o‘rgatish mumkin.

Matematika o‘qitish jarayonida maktab o‘quvchilarining moliyaviy savodxonligini shakllantirishning samarali vositasi kontekstli masalalarni qo‘llashdan iborat [5]. Misol tariqasida quyidagi masalani keltirish mumkin: “Uch dugona Anora, Durdona va Ozoda maktab oshxonasidan pishiriq olishni qaror qilishdi. Bitta pishiriq 2400 so‘m turadi. Agar Anoradada 2000 so‘m, Durdonada 1600 so‘m va Ozodada 1200 so‘m bor bo‘lsa ular qanday yo‘l tutishlari kerak?”

Dunyoda ko‘p davlatlarda “Moliyaviy savodxonlik” o‘quv fanini mustaqil fan sifatida yoki maktablarda mavjud o‘quv fanlari doirasida kiritishga urinishlar mavjud. Masalan 2016 yilning 1 sentabrida Rossiyaning ayrim xududlarida 2 – 11 sinf maktab o‘quvchilarini moliyaviy savodxonlikga o‘rgatish bo‘yicha pilotli loyiha amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘quv fanining metodik tavsiyalarida ta’kidlanganidek, materiallar va topshiriqlarga masalalar, amaliy topshiriqlar, testlar, o‘yinlar, insholar, diagrammalar va loyihalar kiradi. O‘qitish jarayonida matnlar, jadvallar, diagrammalar, grafiklar bilan ishlash malakalari, shuningdek, ma’lumotlarni izlash, tahlil qilish va taqdim etish va omma oldida nutq so‘zlash ko‘nikmalari shakllanadi [2].

Maktablarda moliyaviy savodxonlik kursini o‘zlashtirish natijalariga quyidagilar kiradi:

- axborotni qidirish, to‘plash, qayta ishlash, taxlil qilish va taqdim etishning turli usullarini qo‘llash;
- taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, analogiya va sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatish, fikr yuritish kabi mantiqiy amallarini o‘zlashtirish;
- iqtisod atamalarini tushunish va to‘g‘ri foydalanish;
- oilada va jamiyatda pullarning o‘rnini tushunish;
- foyda va chiqimlarni hisoblash, sodda oilaviy budjetni tuzish qobiliyati;
- oila moliyasi sohasidagi elementar muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo‘llari.

Shunday qilib, zamonaviy inson hayotidagi eng muhim masalalardan biri bu moliyani savodli boshqarish masalasidir. Biroq, har bir umumiy o‘rta maktab bitiruvchisi xavflarni hisoblash, bashorat qilish va baholashga qodir emas. O‘quvchiga iqtisodiy tarbiya berishda aynan matematika alohida o‘rin tutadi. Uning mazmuni o‘quvchilarning moliyaviy savodxonligini muvaffaqiyatli shakllantirishning ko‘plab metodlari mavjud. Bolalik yoki o‘smirlik davrida shakllanadigan moliyaviy savodxonlik yoshlarga kelajakda doimiy o‘zgaruvchan moliyaviy muhitga osonroq moslashish imkonini beradi. Xulosa qilib, yana bir bor shuni ta’kidlash kerakki, asosiy moliyaviy tushunchalarni bilish va ularni amalda

qo‘llash qobiliyati odamga o‘z mablag‘larini malakali boshqarish imkoniyatini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Микромолиявий хизматлар оммабоплигини ошириш чора тадбирлари тўғрисидаги” ги ПҚ-4400 сонли қарори, 23.07.2019 й.

2. Аменд А.Ф. Состояние и развитие теории и практики экономического воспитания школьников. – Челябинск: Изд-во ЧГПИ, 2004.

3. Вендина А.А. Применение кейс-метода при обучении финансовой грамотности в начальной школе // Практические аспекты дошкольной и школьной педагогики: сборник статей по материалам II международной заочной научно-практической конференции. –2016.

4. Гид по финансовой грамотности. – М.: КНОРУС, 2010.

5. Концепция Национальной программы повышения уровня финансовой грамотности населения Российской Федерации.

6. Matematika, 5 sinf: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5- sinfi uchun darslik / В. Q. Haydarov. - Qayta ishlangan va to‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: Yangiyo‘l Poligraf Servis, 2015. - 240 b.

7. Matematika, 6-sinf. M. A. Mirzaahmedov, A. A. Rahimqoriyev, Sh. N. Ismailov, M. A. To‘xtaxodjayeva. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. «O‘qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2017.